

«TASDIQLAYMAN»

“O‘zmilliybank” AJ Samarkand viloyat
Bosh boshqarmasiga qarashli Bulung‘ur
bank xizmatlari ofisini mudiri
B.E.Tursunov.

**“O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI IQTISODIY FAOLİYAT MILLIY BANKI”
AJ SAMARKAND VILOYATI BOSH BOSHQARMASI QARASHLI BULUNG‘UR
BANK XIZMATLARI OFISIDA O‘TKAZILGAN
05/18 -son DAVRA SUXBATI**

Bulung‘ur shaxri O‘zbekiston ko‘chasi №57 uy

« 18 » may 2026 y

Yig‘ilish raisi:

“O‘zmilliybanki” AJ Komplaens tavakkalchilik blogi Korrupsiyani oldini olish boshqarmasi Korrupsiyani oldini olish va muvofiqlashtirish bo‘limi bosh mutaxassisi Sh.Z.Ziyatov.

Qatnashdilar:

“O‘zmilliybank AJ Samarkand viloyat bosh boshkarmasi muammoli kreditlarni undirish va yuridik muvofiqlashtirish boshqarmasi bosh yuristkonsuli Atamurodov Aziz Yuldashevich.

“O‘zmilliybank” AJ Samarkand viloyatiga qarashli Bulung‘ur bank xizmatlari ofisini mudiri, maxallabay ishlash guruxi xodimlari, biznes mijozlarga xizmatlar ko‘rsatish sho‘basi xodimi. Chakana xizmat ko‘rsatish sho‘basi xodimlari, valyuta-ayirboshlash va kassa amaliyotlari xodimlari, so‘ngi nazorat xodimi qatnashdi. Qatnashgan xodimlar ro‘yxati ilova qilinmoqa. ____ xodim qatnashdi.

Kun tartibidagi masalalar:

1. “O‘zmilliybank” AJ Samarqand viloyat bosh boshqarmasiga qarashli Bulung‘ur bank xizmatlari ofisida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga (26.12.2025y) Murojaatnomasida “korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha islohotlari” Korrupsiyaga yo‘l qo‘yish–islohotlarga xiyonat deb belgilandi. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha 2026 yilda **“favqulodda holat”** e‘lon qilindi.

2. “O‘zmilliybank” AJ Samarqand viloyat bosh boshqarmasiga qarashli Bulung‘ur bank xizmatlari ofisidagi bank xodimlarini **“Korrupsiyaga qarshi kurashish”** to‘g‘risida.

3. “O‘zmilliybank” AJ hududiy Bosh boshqarmasi Komplayens tavakkalchiligi bloki rahbari S.J.Nurkulovning 2026 yil 12 martdagi №35-242-sonli xatiga asosan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki topshirig‘iga asosan, 2025 yil 8 noyabr - 12 dekabr kunlari “O‘zmilliybank” AJ Komplaens tavakkalchiligi bloki Korrupsiyani oldini olish boshqarmasi tomonidan Bank iste‘molchilari, tadbirkorlar hamda kenr jamoatchilik o‘rtasida bank tizimida korrupsiyani keltirib chikaruvchi sabab va shart-sharoitlarni tahlil qilish maqsadida google.forms onlayn dasturi hamda Bankning rasmiy telegram kanali, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalar orqali anonim so‘rovnoma o‘tkazilgan bo‘lib, ushbu anonim so‘rovnoma muxokamasi yuzasidan.

4. O‘zbekiston Respublikasining Kiberxavfsizlik strategiyasini belgilash va kiberjinoyatchilikning oldini olish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida 2026 yil 10 martdagi №PF-38 sonli qaroriga asosan.

5. Korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishida "O'zmilliybank" AJ xodimlarining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish bo'yicha huquqiy-targ'ibot va profilaktik chora-tadbirlar rejasiga asosan "O'zmilliybank" AJ ning 2020 yil 10 avgustdagi №126- sonli va 2022 yil 31 yanvardagi №168-47 xatlarga asosan totalizator, qimor va tavakkalchilikka asoslangan o'yinlarni tashkil etmaslik, taqiqlangan o'yinlarni o'ynamaslik uchun oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida.

So'zga chiqdilar: (Sh.Z.Ziyatov, A.Yu.Atamurodov va B.E.Tursunov).

"O'zmilliybank" AJ Komplaens tavakkalchilik blogi Korrupsiyani oldini olish boshqarmasi Korrupsiyani oldini olish va muvofiqlashtirish bo'limi bosh mutaxassisi Sh.Z.Ziyatov, davra suhbatini so'zni, o'z so'zi bilan ochib, yig'ilish ishtirokchilarga kun tartibidagi masalalar dolzarbligi hamda "O'zmilliybank" AJ tarkibiy tuzilmalari va hududiy Boshqarmalarida amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida gaprib berdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lishi muxitni yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni va qarorlarini ijrosi yuzasidan Bankning "O'zmilliybank" AJ Samarqand viloyat bosh boshqarmasiga qarashli Bulung'ur bank xizmatlari ofisidagi bank xodimlari 2026 yil ish tadbirlari Rejasiga asosan bag'ishlangan yig'ilish korrupsiya xaf xatarlarni oldini olish va bartaraf etish, sohasida zamonaviy korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini joriy etish kabi masalalarda barcha bank xodimlari ishtirokida davra suhbatlari ochiq darslar, marifat soatlari va boshqa shakilda tadbirlar o'tkazilishi, hamda bank binosidagi o'rnatilgan televizor ekranlarga korrupsiyaga qarshi ogohlik talab ekanligi va aholi, fuqarolar va mijozlarga plastik kartalaridan aldanib qolishini oldini olish maqsadida kiberjinoyatchilikning oldini olish tizimini takomillashtirish to'g'risida vidorolik o'rnatilganligi to'g'risida gaprib berdi.

Viloyatimizning barcha shahar va tumanlarida, mavjud BXM va BXOlarida ham "Korrupsiyaga qarshi kurashish" to'g'risida tadbirlar o'tkazilib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga (26.12.2025y) Murojaatnomasida "korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha islohotlari" Korrupsiyaga yo'l qo'yish-islohotlarga xiyonat deb belgilandi. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2026 yilda "favqulodda holat" e'lon qilindi. Murojaatnomasi asosan.

Hisob palatasining vakili faoliyati yo'lga qo'yilishi belgilandi. Ushbu rahbarlar tizimdagi nopok shaxslarni aniqlash, shuningdek, byudjet mablag'i talon-toroj bo'lishi va mansabni suliste'mol qilish holatlarining oldini olish bo'yicha ta'sirchan nazorat o'rnatishi va Prezident oldida hisobot berishi ta'kidlandi.

"lavozimim va unvonim bor, menga hech kim tegmaydi" deb hisoblagan shaxslar yangilashayotganini, qonun oldida barcha teng ekani alohida ta'kidlandi.

Yig'ilish davomida barchamizga ma'lumki, muhtaram Prezidentimizning bevosita rahbarligida yurtimizni har tomonlama taraqqiy ettirishga qaratilgan misli ko'rilmagan islohotlar olib borilmokda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga 26 dekabr 2025 yil kunidagi **Murojaatnomasi** asosan.

Assalomu alaykum, aziz yurtldoshlar! Hurmatli deputat va senatorlar! Muhtaram mehmonlar!

Bugun Oliy Majlisga va ko'pmillatli xalqimizga kelgusi yil uchun Murojaatnomani taqdim etar ekanman, avvalo, barchangizni sog'-salomat, ko'tarinki kayfiyatda ko'rib turganimdan xursandman.

So'nggi to'qqiz yilda biz sizlar bilan, el-yurtimiz bilan birgalikda katta taraqqiyot yo'lini bosib o'tdik. Iqtisodiyotimiz yangidan shakllandi, bozor munosabatlarini, ijtimoiy himoyani kengaytirdik, qonun ustuvorligini mustahkamladik. Eng muhimi, islohotlarimiz samarasini har bir mahalla, har bir xonadon va har bir inson kundalik hayotida his qilmoqda.

Bir so'z bilan aytganda, biz islohotlarni aniq amaliy natijaga aylantirishni o'rgandik. Buning tasdig'ini tobora yangicha qiyofa kasb etib borayotgan shahar va qishloqlarimizda, zamonaviy

korxonalar, savdo-servis maskanlari, maktab, bog'cha va shifoxonalar, obod ko'cha va mahallalar, transport-logistika tizimi, raqamli xizmatlar misolida yaqqol ko'rish mumkin.

Qadrli vatandoshlar!

Bugungi kunda dunyoda sodir bo'layotgan va yaqin-yaqingacha hech kim tasavvur qila olmagan o'zgarishlar, davlatlar o'rtasida iqtisodiy qarama-qarshilik, xavfsizlikka tahdidlar ortib borayotgan tahlikali bir vaziyatda sizlar bilan o'ta murakkab yilni yakunlayapmiz.

Qanchalik og'ir bo'lmasin, boshlagan demokratik islohotlarimizni qat'iy davom ettirganimiz; xalqimizning qo'llab-quvvatlashi va yoshlarimizning g'ayrat-shijoati; hamjihatlik asosi bo'lgan mahallaning hayotimizdagi o'rni va ta'sirini kuchaytirganimiz; odamlarimizning ongi va dunyoqarashini o'zgartirib, el-yurtimizni yanada jipslashtirganimiz; tadbirkor, dehqon va fermerlarimizning tashabbuskorligi va mardona mehnati; o'zaro manfaatli hamkorlikka asoslangan do'stona tashqi siyosatimiz hisobiga 2025 yilda barcha sohalarda ulkan yutuqlarga erishdik.

Avvalo, jahon miqyosida ishlab chiqarish va transport-logistika zanjirlari uzilgan, xomashyo va moliyaviy resurslar narxi oshgan sharoitda ham mamlakatimiz iqtisodiyoti ishonchli va barqaror o'sishda davom etayotganini qayd etish lozim.

Platformaga kelib tushgan murojaatlar, ularni ijrochilarga taqsimlash va ko'rib chiqish muddatini nazorat qilish sun'iy intellekt orqali amalga oshiriladi.

Sodda qilib aytganda, mahalladan tortib respublika darajasida hal bo'ladigan har bir masalaning ijrochisi, muddati, resursi bir joyda ko'rinib turadi

Bugunku kunda barcha bank xodimlarning xuquqi ongi va madaniyatini yuksaltirish, korrupsiyaga nisbatan murossasiz munosabatni shakllantirish bag'ishlangan profilaktika tadbirlarining samarasini oshirish, korrupsiya holatlari paydo bo'lmasligi uchun nazorat ishlarini kuchaytirish maqsadida yig'ilish ishtirokchilarni tanishtirib o'tdi.

"O'zmilliybanki" AJ va uning tarkibiy tuzilmalarida korrupsiyaviy holatlarining oldini olishga karatilgan chora-tadbirlar dolzarbligi va bu borada bank xodimlarning javobgarligi, shaxsiy pozitsiyasi muhimligi, korrupsiya atamasining mazmun-mohiyati, kelib chiqishi, sodir etilishi haqida aytib o'tdi.

Jumladan, kun tartibidagi masala yuzasidan quyidagilarni, ya'ni keyingi vaqtlarda joylardagi Bosh boshqarmalarning ayrim nopok bank xodimlari tomonidan o'z manfaatlarini ko'zlagan holda Bankning hududiy Bosh boshqarmalariga tegishli bo'lgan va uning atrofida o'rnatilgan 24/7 Bankomatlaridagi pul mablag'larini qonunga xilof ravishda o'g'rilik harakatlarini sodir etish oqibatida olib ketish holatlari sodir etilayotganligini ma'lum qildi. Ayrim viloyati Bosh Boshqarmasiga tegishli bo'lgan 24/7 Bankomatidan bankning nopok xodimi tomonidan ko'p miqdoridagi pul mablag'larini o'g'irlik sodir qilib, bankomatidan pullarni olib ketganligi, bundan tashqari Bankomatlaridan bankning ayrim nopok bank xodimlari tomonidan ko'plab miqdoridagi pul mablag'larini o'g'rilik qilish oqibatida bankomatidan olib ketganligini haqida gaprib, kelgusida bu kabi holatlar takrorlanmasligi, agarda takrorlangan taqdirda bank xodimning harakatlariga qonuniy baho berilishi maqsadida holat yuzasidan to'plangan barcha hujjatlar tegishli tartibda huquqni muhofaza qiluvchi organiga taqdim qilinishi to'g'risida gaprib berib, bank xodimlarni, yahna bir ogohlantirib, yuqorida ko'rsatilgan holatlar sodir etilganligi achinarli ekanligini, bank xodimlar o'zining va yaqinlarining kelajagini o'ylamasdan, nopok ishlarga qo'l urishib, so'nggi pushaymonlikni hisobga olmaslik oqibatida ularga nisbatan intizomiy jazo choralarining qo'llanilishi yoki jinoiy javobgarlikka tortilishlariga sabab bo'lishini ma'lum qildi, har bir bank xodim o'zining lavozim majburiyatlarini amalga oshirish davomida korrupsiyaviy va manfaatlar to'qnashuvi holatlarining har qanday ko'rinishlariga nisbatan murossasiz munosabatda bo'lishi va unga qarshi ayovsiz kurashishi xodimlarining eng ustuvor vazifasi etib belgilanishini, bundan tashqari, bank xodimlar orasida sog'lom muhitni yaratish, guruxvozlikka yo'l qo'ymaslik, xodimlarning shaxsiy xavfsizligiga, hamda Bank sha'niga imidjiga dog' tushirmaslik, bankning **"Etika kodeksi"** va **"Ichki mehnat tartib qoidlari"**ga rioya etilishini doimiy nazoratga olinishi talablariga muvofiq bank mijozlariga hushmuomalada bo'lishlari va ularga xizmat ko'rsatilishida

kasb odobiga rioya etishlari, ularning tashqi ko'rinishlari belgilangan standart talablarga muvofiq bo'lishi lozimligini ta'kidlab o'tdi.

Bankning "O'zmilliybank" AJ Samarqand viloyat bosh boshqarmasiga qarashli Bulung'ur bank xizmatlari ofisida tashkil etilgan "Aksilkorrupsiya burchak"larida joylashtirilgan monitorlar, plakatlar, slaydlar, infografika va "**Korrupsiyaga qarshi kurashii**" bo'yicha eslatma va nakkalar tarqatilib o'rnatilgan, hamda boshqa innovatsion ko'rinishdagi ma'lumotlar orqali nafaqat bank xodimlarimizni, balki bankimizni har bir mijozlarimizni ham korrupsiya illati va uning oqibatlaridan xabardor qilib, har oyda bank xodimlarini xuquqiy ongini oshirishga harakat qilib kelinmoqda.

- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshirishi haqida so'zladi.

- Bank tizimida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida tezkor xabar berish imkoni beruvchi aloqa kanallari, maxsus axborot portallari, ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy korrupsiya haqida xabar berishga mo'ljallangan maxsus aloqa kanallari tashkil qilingan.

- Korparativ mijozlar uchun.

- info@nbu.uz

- webmaster@nbu.uz

- Yuridik hsxaslar uchun

- support_business@nbu.uz

- Jismoniy shaxslar uchun

- support@nbu.uz

- Anticor@nbu.uz

- Aloqa markazlari 1344 +998 78 148-00-10

(78) 148-00-89 telefon raqamiga qo'ng'iroq qilishlari mumkin Veb-sayt <https://nbu.uz/>.

Shuningdek, korrupsiyaga yo'l qo'ygan fuqarolar uchun jazo muqarrarlighi, pora olgan, pora bergan va pora olib-berishda vositachilik qilgan shaxslar bir xil jazoga tortilishi to'g'risida ta'kidlab o'tdi.

Hozirgi kunda tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, ko'rsatilgan holatlar banklarning rahbariyati tomonidan "**Qizil zona**" kiritilgan bank xodimlar faoliyati ustidan domo nazorat o'rnatish, ba'zi nopok bank xodimlar tomonidan uyushgan jinoyiy guruh tashkil etilgan holda, hamda totalizator va azart o'yinlar o'ynash va boshqa turli huquq buzarliklarga qo'l urganligi oqibatida amalga oshirilgan haqida gaprib berdi.

"O'zmilliybank" AJ tarkibida ishlovchi xodimlarining "O'zmilliybank" Ichki mehnat tartibi qoidalarini va 2020 yil 10 avgustdagi 126-sonli sonli va 2022 yil 31 yanvardagi №168-47 xatlarga asosan buyrug'i talablari ijrosini ta'minlash maqsadida, "1xbet", "PokerStars" va boshqa onlayn totalizator, qimor va tavakkalchilikka asoslangan o'yinlarni tashkil etmaslik, taqiqlangan o'yinlarni o'ynamaslik uchun oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida va bevosita va bilvosita o'ynash yoki ushbu o'yinlarda vositachilik qilmaslikni, ish faoliyatim davrida yuqoridagi talablarni bajarmasdan xato-kamchilikka yoki bankka zarar yetkazib qo'ygan ko'yilgan taqdirda yetkazilgan zararni, kamomadni o'z hisobimdan qoplashni o'z zimmamga olishni qarshilik ko'rsatmalik to'g'risida tushuntirildi.

"1xbet", "PokerStars" va boshqa onlayn totalizator hamda azart o'yinlarni o'ynash bilan bog'liq hatti-harakatlari ish beruvchi tomonidan xodimga nisbatan ishonchning yo'qolishi uchun asos hamda bank xodimi ish etikasi va ishdagi odob-ahloq tamoyillariga zid bo'lib kelmoqda.

Bundan tashqari "O'zmilliybank" AJ xodimlari tomonidan "1xbet", "Poker Stars" va boshqa onlayn totalizator hamda azart o'yinlar o'ynalishini "O'zmilliybank" Ichki mehnat tartibi qoidalarini bir marta buzganlik uchun mehnat shartnomasini bekor qilish uchun asos bo'lib, hisoblanishi bo'yicha tegishli bandleri bilan har bir xodimlarni tanishib chiqib, bank rahabriyati tomonidan bir necha bor ogohlantirilib o'tilgan.

Ayrim bank xodimlar tomonidan ish vaqtida totalizator va azart o'yinlarida bank mablag'laridan foydalangan holda ishtirok etish holatlari natijasida turli huquqbuzarliklarga qo'l urganligi oqibatida huquqni muhofaza qiluvchi organlari tomonidan jinoiy javobgarlikka tortilmoqdalar.

Kredit ajratish jarayonida bank xodimlari tomonidan suiste'molchilik va ta'magirlik qilish holatlari, mablag'larni talon-taroj qilish va boshqa korrupsiyaviy huquq buzarliklarning oldini olinishi va ayrim bank xodimlari o'zlari yoki yaqin qarindoshlari nomiga tijorat banklari, shu jumladan "O'zmilliybank" AJ hisobidan ajratilgan kreditlarning to'lovlarini o'z vaktida so'ndirmayotganligi

yuzasidan ma'lumotlar kelib tushganligi sababli o'z vaqtida olingan kreditlarni so'ndirishi haqida gaprib berdi.

Har bir bank xodimi dunyo qarashida kelib chiqqan xolda **"Bank xodimi"** degan nomga dog' tushiradigan xatti-harakatlar va ularning oqibatlarini xaqidagi tasavvurlarini kengaytirish choralarini ko'rish. Bank mavqeini asrash, bank nufuzini oshirishga qaratilgan targ'ibot ishlarini kuchaytirish. Xodimlar tarkibi va salohiyati, ma'naviy-ma'rifiy va ahloqiy tarbiyaviy ishlarni olib borilishi, xodimlar tomonidan ish paytida har bir mijoz bilan gaplashiyotganda xush muomalali bo'lishi talab qilinadi va ishdan tashqari bo'sh vaqtlarni nima bilan shug'ullanayotganligi, spirtli ichimliklar iste'mol qilish holatlariga chek qo'yilishiga, bank tomonidan xodimlari ustidan doimiy monitoring o'rnatish, bank xodimining xulqi, kiyinishi va tashqi ko'rinishi bo'yicha talabga doimo rioya qilinishi to'g'risida tushintirib berdi.

Kredit ajratish jarayonida bank xodimlari tomonidan suiste'molchilik va ta'magirlik qilish holatlari, mablag'larni talon-taroj qilish va boshqa korrupsiyaviy huquq buzarlklarning oldi olinishi maqsadida va ayrim bank xodimlari o'zlari yoki yaqin qarindoshlari nomiga tijorat banklari, shu jumladan "O'zmilliybank" AJ hisobidan ajratilgan kreditlarning to'lovlarini o'z vaktida so'ndirmayotganligi yuzasidan ma'lumotlar kelib, tushganligi sababli o'z vaqtida olingan kreditlarni so'ndirishi haqida gaprib o'tdi.

"Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonuni va "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari talablaridan kelib chiqqan holda "O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki" AJda korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosati" ishlab chiqilganligi. Ushbu Siyosat bankda korrupsiyaga qarshi kurashish tamoyillari hamda bu boradagi xodimlarning vazifalari aniq aks ettirilganligi;

- Bank mijozlari (fuqarolar va yuridik shaxslari)ning korrupsiya holatlari buyicha hamda xodimlarning boshqa qonunga xilof ishlari to'g'risida murojaatlar tahlilini hisobga olinishini ta'minlash;

- Bank xodimlarni xizmat vazifalarini bajarishda har qanday moddiy qiymatga ega **"xadya"** larni berilishiga yoki ularning xizmat vazifalarini bajarishi munosabati bilan boshqa imtiyozlar taklif qilinishiga nisbatan murosasiz munosabatlarni shakllantirish;

- Bank xodimlar o'z vazifalarini bajarishda manfaatlar to'qnashuviga olib kelishini inobatga olib, shaxsiy manfaatdorlik yuzaga kelishi xakida hisob berish majburiyatini bajarish, shuningdek, bunday nizoni oldini olish yoki xal qilish uchun choralar ko'rish.

- Bank tomonidan ajratilgan qisqa va o'zoq muddatli kreditlar borasida korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik holatlari hamda bu borada korrupsiyaga qarshi kurashib xodimlar orasida tushuntirishlar ishlari olib borish.

- Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshirishi haqida so'zladi.

"O'zmilliybank AJ Samarkand viloyat bosh boshkarmasi muammoli kreditlarni undirish va yuridik muvofiqlashtirish boshqarmasi bosh yuristkonsuli Atamurodov Aziz Yuldashevich o'z so'zida. Hozirgi kunda Hech shubhasiz, jamiyat farovonligi va taraqqiyotiga to'siq bo'layotgan ana shunday illatlardan biri va engi xavfli bu **Korrupsiyadir.**

Fuqarolarni noqonuniy vajlar bilan sarsan qilish orqali ta'magirlik qilish, sovg'alar olish va boshqa har xil ko'rinishlar bor. Etimologik jihatdan **"korrupsiya"** - lotincha "corruptio", ya'ni "buzish, sotib olish, pora evaziga og'dirish" degan ma'nolarni anglatadi. **Ma'lumki,** Davlatimiz rahbari **Shavkat Miromonovich Mirziyoev**ning tashabbuslari va qat'iy siyosiy irodalari bilan mamalakatimizda bu illatga qarshi murosasiz kurash olib borilmoqda. Eng avvalo, huquqiy asoslarni yaratishga e'tibor berilib, hozirgi kunda 70 dan ortiq qonun hujjatlari, jumladan, alohida qonun, farmon va davlat dasturlari qabul qilindi.

Barchamizga ma'lumki, muhtaram Prezidentimizning bevosita rahbarligida yurtimizni har tomonlama taraqqiy ettirishga qaratilgan misli ko'rilmagan islohotlar olib borilmokda.

Zotan, yillar davomida biz ko'nikib qolgan hayot tarzimizni tez fursatlarda tubdan o'zgartirdik, go'yoki inkonsizdek tuyulgan qarashlardan, umuman, eskicha dunyo - qarash, ish uslubi va yondashuvlardan tamomila voz kechdik.

Albatta, yangilanayotgan O'zbekistondagi bunday tarixiy ishlar, ayniqsa, mamlakat va xalq farovonligini oshirish, hududlarimiz qiyofasini o'zgartirish, yurtimizda tinchlik va osoyishtalikni, adolatni ta'minlashda Sizlarning ham katta hissangiz bor.

Umuman, jamiyatda qonun ustuvorligi va adolat ta'minlanmasa, qonunlar ijrosiz qolsa, har qanday tashabbus va islohotlar samarasiz bo'lishi, bora - bora tartib - intizom izdan chiqib, parokandalikka olib kelishi hech shubhasizdir.

Zero, Buyuk bobokalonimiz Sohibqiron Amir Temur aytganlaridek, **"Davlat qonunlar asosida qurilmas ekan, unday saltanatning shukuhi, qudrati va tarkibi yo'qoladi"**.

Shu bois, har bir fuqaro buning mazmunini to'la anglashi, avvalo, o'zi qonunlarga qat'iy rioya etishi zarurdir. Lekin, yaxshi bilasiz yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning zamiriga rahna soladigan illatlardan biri borki **bu-korrupsiya** balosidir.

Korrupsiya kecha va bugun paydo bo'lib qolgan, faqat bir mamlakatga xos illat emasligi hech birimizga sir emas. Shu boisdan, korrupsiyaning oldini olish va unga butkul barham berish barcha davlatlarning birinchi darajadagi vazifasidir.

So'nggi yillarda muhtaram Prezidentimiz **Shavkat Miromonovich Mirziyoevning** tashabbuslari asosida korrupsiyaga qarshi samarali kurashni tashkil etish, bu illatga batamom chek qo'yish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Bu borada **"Qonun - ustuvor, jinoyatga jazo muqarrar"** degan tamoyilni ro'yobga chiqarish uchun barcha huquq - tartibot idoralarining bor kuch va imkoniyatlari safarbar etilmoqda.

Avvalo, ushbu islohatlarning tub zamirida Hurmatli Prezident Sh.M.Mirziyoev tomonidan ilgar surilgan **"Xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak"** va **"korrupsiya qarshi kurashishda aholining barcha qatlamlari, eng yaxshi mutaxassislar jalb qilinmas ekan, jamiyatimizning barcha a'zolari, ta'bir joiz bo'lsa "Hallolik vaksinasi" bilan emlanmas ekan, o'z oldimizga quygan yuksak marralarga erisha olmaymiz. "Biz korrupsiyaning oqibatlarini bilan kurashgandan uning barvaqt oldini olishga utishimiz kerak"** degan tamoyiliga muvofiq barcha imkoniyatlar xalqimiz manfaatlarini yo'lida safarbar etilish ustuvor vazifa etib belgilanmoqda.

"Korrupsiya-bu davlatimizni ich-ichidan yemirib, milliy xavfsizligimizga rahna soladigan g'oyat xatarli tahid va unga qarshi murosasiz kurash murosasiz kurash olib borish barchamizning burchimizdir".

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi hamda Korrupsiya qarshi kurashish agketligi tomonidan har yili o'tkazilgan tahlillar natijasida, raxbar va xodimlar uchun barcha zaruriy shart-sharoitlar yaratib berilayotganligiga qaramay, davlat organlari, xo'jalik birlashmalari tizimida korrupsiyaviy jinoyatlar soni ortib borib yotganligi, Bosh prokuratura huzuridagi Departamentning viloyat boshqarmalari tomonidan banklar bo'yicha o'tkazilgan tekshiruvlarda aniqlangan kredit mablag'larini o'zlashtirish holatlari bo'yicha to'xtalib, tergovga qadar tekshiruvlarda MChJ va xususiy korxonalar va boshqa xo'jaliklar tomonidan hududiy tijorat banki filialidan ajratilgan imtiyozli va boshqa maqsaddagi kredit mablag'larini o'zlashtirish yo'li bilan talon-toroj qilganliklari aniqlanganligi va hozirda barcha holatlar bo'yicha JKning tegishli moddalari bilan jinoyat ishlari qo'zg'atilganligi to'g'risida tushintirib berdi.

Bunda qonun buzarlilarning kelib chiqish sabablari sifatida bank xodimlarining kasbiy ko'nikmalarining pastligi, bank jamoalaridagi nosog'lom muhit, qarindosh-urug'chilik, mahalliychilik, guruhbozlik, bank tizimida jinoiy sxemalarning mavjudligi,-deb tushuntirildi.

Bankning xodimlari ishini yuritishda amaldagi qonunchilik xujjatlariga to'la rioya qilish, pora olish, kredit mablag'larini o'zlashtirish, talon-taroj qilish, bankka aloqador shaxslar va ularning oila a'zolari tomonidan kreditlar olish xolatlarning oldini olish tadbirlarini doimiy olib borishi to'g'risida gaprib o'tdi.

Korrupsiyaga qarshi kurash bugungi kunda eng ahamiyatli mavzulardan biri ekanligini, buning girdobiga tushib qolmaslik uchun joylarda bank xodimlariga korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha mavjud qonun hujjatlari bilan doimiy ravishda tanishtirib borilishi lozimligi gapirib berdi. Barcha toifadagi bank xodimlar tomonidan har qanday huquqbuzarliklarga yo'l qo'ymasligi va korrupsiyaga qarshi kurashish talablari bilan tanishganligi to'g'risida majburiyatnomalar rasmiylashtirilgan kafolat xatlari olinganligi to'g'risida gapirib o'tdi.

Ushbu yo'nalishdagi ishlarning tizimligi, samaradorligi, keng qamrovligini ta'minlash mas'uliyati birinchi rahbarlar zimmasidaligini takidlab, e'tiborsizlik yoki beparvolikka yo'l qo'ygan taqdirda amaldagi qonunchilikda belgilangan keskin intizomiy va jinoiy jazo choralari qo'llanilishi to'g'risida qat'iy ogohlantirilgan to'g'risida tushintirib berdi

Xalq tilida soddagina qilib-poraxo'rlik, keng ma'noda korrupsiya, deb ataluvchi hodisa barcha islohotlar ildiziga bolta uradi. **Korrupsiyaning o'zi nima?**

Korrupsiya – bu jamiyatni turli yo'llar bilan iskanjaga oladigan dahshatli illatdir. Mazkur illat demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazadi. inson huquqlari buzilishiga olib keladi. bozorlar faoliyatiga to'sqinlik qiladi, hayot sifatini yomonlashtiradi va odamlar xavfsizligiga tahdid soladigan uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va boshqa hodisalar ildiz otib, gullashi uchun sharoit yaratib beradi.

Korrupsiya atamasi eng avvalo buzish, tizimni izdan chiqarish, pora evaziga o'z manfaati yo'lga og'dirib olish degan ma'nolarni anglatadi, siyosiy apparat xodimlariga nisbatan foydalanishi odatiy tusga kirgan va makroiqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichiga eng katta salbiy to'lqinni olib kiruvchi omil aynan korrupsiya hisoblanadi.

Uning ko'rinishlari turlicha bo'lishi mumkin: **poraxo'rlik, tovlamachilik, firibgarlik va boshqalar.**

Korrupsiyaning kelib chiqish ildizi qaerda? Uning kelib chiqish sabablarini aniqlash, korrupsiyaga qarshi kurashning samarali yo'llarini topish bo'yicha mutaxassislar, turli institutlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan yuzlab, minglab tadqiqotlar o'tkazilgan. O'ziga xos reytinglar tuzilib, har xil ko'rsatkich va raqamlar qayd etilgan jadvallar yaratilgan. Hatto korrupsiyaning xilma-xil ko'rinishidagi formulalari ham ishlab chiqilgan.

Biroq hanuzgacha, barcha millatlar uchun qo'l keladigan qarshi kurashda asqotadigan yagona yechim yo'q. Korrupsiya mavjud bo'lgan har qanday davlat boshqaruvida, har qanday jamiyatning xayotida rivojlanish taraqqiyot bo'lmasligi aniq.

Korrupsiyani yuzaga keltiruvchi omillar quyidagilar bo'lishi mumkin:

Ikki xil ma'noni anglatuvchi qonunlar – ushbu vaziyat huquqni qo'llovchi mansabdor shaxs tomonidan qonunlarni turlicha qo'llash imkonini yaratadi.

Aholi huquqiy savodxonligining pastligi – aholi tomonidan qonunlarni bilmaslik yoki tushunmaslik mansabdor shaxsga o'zining shaxsiy manfaati yo'lida qonunlardan foydalanishga qulay sharoit yaratadi.

Mamlakatdagi siyosiy vaziyatning notinchligi — mamlakatdagi notinchlik birinchi navbatda aholi ongida hayotda yuksak turmush darajasiga erishishning asosiy usuli qonunga xilof faoliyat bilan bog'liq, degan mutlaqo axloqqa zid nuqtai nazar shakllanishiga olib keladi. Bu esa o'z navbatida korrupsiyaga qulay sharoit yaratadi.

Huquqiy savodxonlikni oshirish;

Korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish;

Korrupsiyaga qarshi immunitetni hosil qilish;

korrupsiya – shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

korrupsiyaga oid huquqbuzarlik – korrupsiya alomatlariga ega bo'lgan. sodir etilganligi uchun qonun hujjatlarida javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

manfaatlar to'qnashuvi – shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat.

Korrupsiyaviy xavf-xatar – Tashkilot xodimlari yoki uchinchi shaxslar tomonidan Tashkilot nomidan yoki ularning manfaatlari yo'lida korrupsiyaviy harakatlarni amalga oshirish xavfi.

Korrupsiyaviy harakatlar – xodim tomonidan bevosita yoki bilvosita shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali pora beruvchi manfaatlari yo'lida harakat yoki harakatsizlik uchun moddiy manfaatdor bo'lishi, shu jumladan, pul, qimmatbaho qog'oz, boshqa ko'rinishdagi mulk va mulkiy huquqlar, mulkiy harakterdagi xizmatlar olish, talab qilish, undirish, taklif qilish yoki berish, pora berish yoki olish yoki bunda vositachilik qilishda, rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to'lovlar undirish (pora olish) va boshqa noqonuniy maqsadlarda o'z xizmat vazifalaridan foydalanish:

Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi – korrupsiyaviy harakatlarning, O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonunchiligi va tashkilotning korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga doir ichki hujjatlari buzilishining oldini olish, tashkilot xodimlari tomonidan o'z faoliyatini professional va xulq-atvor jihatdan yuksak darajada amalga oshirilishini ta'minlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar;

O'z navbatida, "O'zmilliybank" AJ tizimida mehnat qilayotgan har bir rahbar va xodimni korrupsiya holatlarining har qanday ko'rinishlariga nisbatan murosasiz munosabatda bo'lishga hamda o'z xizmat vazifalarini halol va pok hamda xolis bajarilishini ta'minlashga rioya qilinsa muvaffaqiyatga erilishi tayin.

Manfaatlar to'qnashuvi-shaxsining shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorligi uning o'z lavozim yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatish mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarining, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari, qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan (mavjud manfaatlar to'qnashuvi) yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan (ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi) vaziyat;

Yaqin qarindoshlar ota-onalar, aka-ukalar, opa-singillar, o'g'illar, qizlar, er-xotinlar, shuningdek er-xotinlarning ota-onalari aka-ukalari opa-singillari va farzandlari.

Korrupsiya nima o'zi va u nimadan boshlanadi?

Qonun hujjatlarida korrupsiya tushunchasiga qo'yidagicha ta'rif berilgan:

"Korrupsiya – davlat organlari xodimlari moddiy yoki mulkiy yo'sinda, g'ayriqonuniy shaxsiy naf ko'rish maqsadida, o'z xizmat mavqeidan foydalanishida ifodalanadigan ijtimoiy hodisadir". Aslida korrupsiya biror mansabdor shaxsning qonunchilik va axloqqa zid ravishda o'zining vakolatlari va huquqlaridan shaxsiy manfaatlar maqsadida foyda olishidir.

Hech shubhasiz, jamiyat farovonligi va taraqqiyotiga to'siq bo'layotgan ana shunday illatlardan biri va engi xavflisi bu **Korrupsiyadir. Xo'sh, korrupsiya nimasi bilan xavfli?**

Korrupsiya har qanday jamiyani tag'tomiri bilan yemiruvchi, fuqarolarning davlatga, qonunga bo'lgan ishonchini susaytiruvchi, yo'qqa chiqaruvchi illatdir.

Korrupsiya avvalo, yoshlarning hayotda o'z o'rinini topishida turli to'siq va g'ovlarni yuzaga kediradi, ularning ertangi kunga ishonchini susaytiradi. Korrupsiya investorlar huquqlari bo'zishga, mulk daxlsizligi kafolatlarini yo'qqa chiqarishga, mamalakatning investitsion jozibadorligi yo'qolishiga olib keladi.

Banklar iqtisodiyotning **drayveri** hisoblanadi, dravering **o'zi "bo'ziq" bo'lsa** iqtisodiyotni qanday tortadi yoki yuqoriga olib chiqadi?

Bankdagi ta'magirlik va korrupsiva hollatlari:

- Kredit, omonatdagi ta'magirliklar.
- Hujjatlarni saxtalashtirish.
- Ta'minotchi korxonalar bilan til biriktirish.
- Mansab vakolatini su'istemol qilish.
- Manfaatlar to'qnashuvi.
- Nepotizm –(tanish- bilishchilik, qarindosh- urug'chilik) o'zining yaqin qarindoshlariga noqonuniy imtiyozlar berish.
- Koronizm – do'stlar yoki ishonchli shaxslarga noqonuniy imtiyozlar berish.
- Homiylik qilish (o'z xodimlari va tadbirkorlarga).

- Fuqarolarni noqonuniy vajlar bilan sarsan qilish orqali ta'magirlik qilish, sovg'alar olish va boshqa har xil ko'rinishlar bor.

Yana bir tashvishli holat, tadbirkor va fuqarolar tomonidan bank xizmatidan norozi bo'lib yozilgan murojaatlar oshib barayotganligi kuzatilmoqda.

Korrupsion holatlar to'g'risida xabar bergan shaxslar haqidagi ma'lumotlarning sir saqlanishi to'liq kafolatlanadi.

Siz bu orqali nafaqat jamiyatni bu illadan tozalashga hissa qo'shasiz, balki farzandlaringizni kelajagi uchun toza jamiyat qoldirasiz, ularni korrupsiyadan holi vatanda farovon yashashiga zamin yaratasiz.

Lekin ko'zlangan natijalarga hali to'liq erishmadik, afsuski, ayrim mansabdor shaxslarning o'z shaxsiy manfaatini jamiyat manfaatidan ustun qo'yishi islohatlar yo'liga g'ov bo'layotganligi ham ayni haqiqat.

"O'zmilliybank AJ Samarkand viloyat bosh boshkarmasi qarashli Bulung'ur bank xizmatlar ofisini muduri Tursunov Bekzod Ergashboevich. Yig'ilish davomida "O'zmilliybank" AJ hududiy Bosh boshqarmasi Komplayens tavakkalchiligi bloki rahbari S.J.Nurkulovning 2026-yil 12-martdagi 35-242-sonli xatiga asosan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki topshirig'iga asosan, 2025 yil 8-noyabr 12-dekabr kunlari "O'zmilliybank" AJ Komplaens tavakkalchiligi bloki Korrupsiyani oldini olish boshqarmasi tomonidan Bank iste'molchilari, tadbirkorlar hamda kenr jamoatchilik o'rtasida bank tizimida korrupsiyani keltirib chikaruvchi sabab va shart-sharoitlarni tahlil qilish maqsadida google.forms onlayn dasturi hamda Bankning rasmiy telegram kanali, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalar orqali anonim so'rovnoma o'tkazilgan bo'lib, ushbu anonim so'rovnoma muxokamasi yuzasidan So'rovnomada respublikaning barcha hududlaridan jami 1 152 nafar respondentlar ishtirok etgan. Respondentlarning 41,4 foizini davlat tashkilotlari va idoralari xodimlari, 10 foizi tadbirkorlik faoliyati sub'ektlari, 13,6 foizi bank-moliya sohasi vakillari, 4,6 foizi o'quvchi va talabalar, 4,4 foizi vaqtincha ishsizlarni tashkil etgan. So'rovnomada bank faoliyatiga taaluqli 17 ta savol qo'yilgan bo'lib, shulardan 7 tasi bevosita Bankdagi korrupsion va manfaatlar to'qnashuvi masalalari bilan bog'liq holatlarga bag'ishlangan (1-2-ilovalarda keltirilgan). Viloyatlar kesimida respondentlarning korrupsion va manfaatlar to'qnashuvi masalalari bilan bog'liq holatlarga bag'ishlangan savollarga bergan javoblari tahlili quyidagilarni ko'rsatib o'tilgan bo'lib, bo'lar asosan qo'ydagilardan iborat bo'lgani to'g'risida gaprib, berdi asosan:

1. Bank xizmatlaridan foydalanishda ortiqcha byurokratik to'siqlar mavjudligini bildirgan respondentlar orasida eng ko'p ovoz berganlar Toshkent shahri (40 ta), Navoiy viloyati (19 ta), Toshkent viloyati (13 ta) va Samarqand viloyati (12 ta) tashkil qilgan.

2. Bank xodimlari tomonidan korrupsiya bilan bog'liq harakatlar sodir etilishiga Toshkent shahri va Toshkent viloyatidan (4 tadan), Farg'ona, Navoiy va Qashqadaryo viloyatlari (3 tadan), Buxoro, Samarqand viloyatlari (2 tadan), Qoraqalpog'iston Respublikasi, Namangan va Surxondaryo viloyatlari (1 tadan) duch kelganligi to'g'risida bildirgan. Korrupsion holatlarga duch kelganlar ko'proq kredit mahsulotlari, bank kartalari, turli to'lovlar jarayonlari hamda boshqa yo'nalishlarni ko'rsatib o'tishgan.

3. "O'zmilliybank" xodimlarining xizmat ko'rsatish davrida odob-axloq qoidalariga rioya etmaganliklari to'g'risida eng ko'p ovoz berganlar Toshkent shahri (32 ta), Navoiy viloyati (17 ta), Samarqand viloyati (11 ta) tashkil qiladi.

4. Bank xodimlari tomonidan xizmat ko'rsatishda "choy-chaqa" yoki sovg'a talab qilganlar qatorida respondentlar Toshkent shahri, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Farg'ona, Samarqand, Navoiy, Namangan, Qashqadaryo va Buxoro viloyatlarini ko'rsatilgan.

5. "O'zmilliybank" xizmatlaridan foydalanishda Toshkent shahri (15 ta), Navoiy viloyati (9 ta), Samarqand viloyati (6 ta), Toshkent viloyati (5 ta), Buxoro viloyati (4 ta), Farg'ona viloyati (4 ta), Qashqadaryo viloyati (3 ta), Qoraqalpog'iston Respublikasi (2 ta), Andijon viloyati (2 ta), Namangan viloyati (1 ta), Surxondaryo viloyati (1 ta), Xorazm viloyati (1 ta) respondentlari **"tanish-bilishchilik"**dan foydalanganligini e'tirof etishgan.

6. Respondentlar Bankning barcha Bosh boshqarmalarida qarindosh-urug'chilik holatlarining mavjudligini e'tirof etishgan: Toshkent shahri (27 ta), Navoiy viloyati (15 ta), Toshkent viloyati (13 ta), Samarqand viloyati (12 ta), Farg'ona viloyati (9 ta), Qashqadaryo viloyati (9 ta), Qoraqalpog'iston

Respublikasi (7 ta), Jizzax viloyati (6 ta), Andijon viloyati (5 ta), Xorazm viloyati (5 ta), Buxoro viloyati (4 ta), Sirdaryo viloyati (4 ta), Namangan viloyati (2 ta) va Surxondaryo viloyati (2 ta). Bunday illatga duch kelganlar ko'proq kredit ajratish, ishga qabul qilish jarayonlari hamda boshqa yo'nalishlarni ko'rsatilgan.

7. Toshkent shahri, Navoiy, Farg'ona, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyati Bosh boshqarmalarida faoliyat yurituvchi Komplaens tavakkalchiligi bloki Korrupsiyani oldini olish boshqarmasi bosh mutaxassislari aholi va mijozlar orasida Bankning korrupsiya holatlari bo'yicha xabar berishga mo'ljallangan maxsus aloqa kanallari to'g'risida ma'lumotlarni keng jaoatchilikka yetkazish masalasiga alohida e'tibor berishlari zarurligi to'g'risida tushintirib berdi va hamda bank binosiga kirib kelgan, har bir fuqaro yoki mijozlarni o'z vaqtida sarson qilmasdan to'g'ri tushintirib berish haqida taklif va tushuntirishlar berildi.

"O'zmilliybanki" AJ Komplaens tavakkalchilik blogi Korrupsiyani oldini olish boshqarmasi Korrupsiyani oldini olish va muvofiqlashtirish bo'limi bosh mutaxassisi Sh.Z.Ziyatov yig'ilish davomida 2025-yil boshida o'tgan yillarga qaraganda kiberjinoyatchilikdan jabirlangan fuqarolar murojaatlari soni Respublikada tobora ortib borayotganligini hamda bu jinoyatchilikka qarshi kurashishni kuchaytirish kerakligi haqida to'xtalib o'tdi.

Hozirgi vaqtda dunyo ham jamiyatida ushbu jinoyatchilikning jadallik bilan rivojlanib borayotganligi, tavlomachilar fuqarolarning ishonchiga kirib turli yo'llar bilan bank plastik kartalaridagi pullarni o'g'irlanayotganligini aytdi.

-Omonat saqlovchilar, hayriya, tijorat va boshqa maqsadlarda bank hisob varaqalarini ochgan holda faoliyat yurituvchi sub'ektlar (jismoniy va yuridik shaxslar) tomonidan bank moliyaviy operatsiyalarining xavfsiz holda amalga oshirilishi, pul o'tkazmalari va har qanday shakldagi to'lovlarning amalga oshirilishida raqamlashgan identifikatsiya kodlarining sir saqlanishi, pul o'tkazmalari va boshqa moliyaviy tranzaktsiyalarning bajarilishi bilan bog'liq shubhali xabarlar, qo'ng'iroqlar va muloqotlar haqida darhol ma'lumot taqdim etmasdan zudlik bilan bank ma'muriyati yoki mas'ul xodimlari bilan shaxsan yoki o'z vakillari orqali bog'lanib, vaziyatga aniqlik kiritilganidan so'ng bank moliyaviy operatsiyalarini amalga oshirish;

-Bank mijozlariga bank plastik kartalari va omonat daftarchalari bilan bog'liq moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish imkonini beruvchi elektron raqamli imzo (ERI)larni uchinchi shaxslarga ishonib topshirmaslik yoki umumiy foydalanishdagi kompyuter qurilmalarida saqlamaslik ;

- "Uzum market", "Temu", "Express do'kon" va shu kabi boshqa marketpleyslar orqali onlayn savdo qilishda bank plastik kartalari haqidagi ma'lumotlarni oshkor qilmaslik

-Bank mijozlari tomonidan bank plastik kartalaridan foydalanishda karta raqami, amal qilish muddati hamda kalit so'zlarini uchinchi shaxslar bilan almashmaslik, zarurat tug'ilganida kalit so'zlarini o'zgartirib borish hamda mijozlarni bank kartalari hisobidagi mablag'larning ko'chirilishi ;

-Pul o'tkazmalari va boshqa moliyaviy tranzaktsiyalarning bajarilishi bilan bog'liq shubhali xabarlar, qo'ng'iroqlar va muloqotlar haqida darhol ma'lumot taqdim etmasdan zudlik bilan bank ma'muriyati yoki mas'ul xodimlari bilan shaxsan yoki o'z vakillari orqali bog'lanib, vaziyatga aniqlik kiritish bo'yicha kengdan tushintirishlar berildi.

Bundan tashqari tavlomachilar asosan telegram messenjerlari orqali notanish bo'lgan kontaktlardan "apk" fayllarini yuborish orqali qiziqtirish yo'llari bilan ushbu fayllarni ochishni taklif qilib, agar fuqarolar tomanidan ushbu fayllar ochilgan taqdirda uning plastik kartasidan pullar yechilib olinayotganligi, "sms" kod yollab ushbu kodni tasdiqlab berishni iltimos qilib, agar ushbu kodlar tovlamachilarga aytilgan taqdirda bank plastik kartalaridan pul yechilib olinishi, "onlayn savdo" amalga oshirilgan vaqtlarda tovlamachilarga hamda "yolg'on treyderlar"ga aldanib qolmasligini tushintirib o'tildi.

Agarda kimda-kim yuqorida ko'rsatilgan kiberjinoyatchilar hujumiga tushib qolgan taqdirda zudlik bilan 102 qisqa raqamiga qo'ng'iroq qilib Ichki ishlar bo'limiga xabar berish lozim ekanligini yana bir bor ta'kidlab o'tdi.

Yig'ilish yakunida "O'zmilliybank" AJ Komplaens tavakkalchilik blogi Korrupsiyani oldini olish boshqarmasi Korrupsiyani oldini olish va muvofiqlashtirish bo'limi bosh mutaxassisi Sh.Z.Ziyatov, "O'zmilliybank AJ Samarkand viloyat bosh boshqarmasi muammoli kreditlarni undirish va yuridik muvofiqlashtirish boshqarmasi bosh yuristkonsuli A.Yu.Atamurodov, "O'zmilliybank AJ Samarkand viloyat bosh boshqarmasi qarashli Bulung'ur bank xizmatlar ofisini muduri B.E.Tursunovlarni yig'ilish qatnashchilarga kelgusida korrupsiyani oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirish eng muhim vazifa ekanligini yana bir bor ta'kidladi.

Ushbu jarayonda barcha xodimlarning javobgarligi yuqori ekanligi munosabati bilan, hammani ogohlikga, o'z vazifalarini sidqidildan bajarishga va rejalashtirilgan ishlarni amalga oshirishda jadallikka chaqirdi va yuqordagi aytilgan mavzulari bo'yicha, maxallabay ishlash guruxi mahalla bankiri, chakana xizmat ko'rsatish sho'basi, yetakchi mutaxassislari, ipoteka kreditlash sho'basi va valyuta ayirboshlash va kassa amaliyotlari sho'basi kassiri xodimlarining mas'uliyatini oshirish maqsadida to'shintirib, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ko'rsatmalar berib, ogohlikka chaqirdi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, majlis

QAROR QILADI:

1. "O'zmilliybank" AJ Samarqand viloyat bosh boshqarmasiga qarashli Bulung'ur bank xizmatlari ofisida. **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga (26.12.2025y) Murojaatnomasida "korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha islohotlari"** Korrupsiyaga yo'l qo'yish-islohotlarga xiyonat deb belgilandi. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2026 yilda **"favqulodda holat"** e'lon qilingan va davra suhbat bankning barcha xodimlari tanishtirilsin.

2. O'zmilliybank" AJ Samarqand viloyat bosh boshqarmasiga qarashli Bulung'ur bank xizmatlari ofisidagi xodimlarini **"Korrupsiyaga qarshi kurashish"** to'g'risida.

3. "O'zmilliybank" AJ hududiy Bosh boshqarmasi Komplayens tavakkalchiligi bloki rahbari S.J. Nurkulovning 2026 yil 12 martdagi № 35-242-sonli xatiga asosan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki topshirig'iga asosan, 2025 yil 8 noyabr - 12 dekabr kunlari "O'zmilliybank" AJ Komplaens tavakkalchiligi bloki Korrupsiyani oldini olish boshqarmasi tomonidan Bank iste'molchilari, tadbirkorlar hamda kenr jamoatchilik o'rtasida bank tizimida korrupsiyani keltirib chikaruvchi sabab va shart-sharoitlarni tahlil qilish maqsadida google.forms onlayn dasturi hamda Bankning rasmiy telegram kanali, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalar orqali anonim so'rovnoma o'tkazilgan bo'lib, ushbu anonim so'rovnoma muxokamasi barcha bank xodimlari tanishtirilsin.

4. O'zbekiston Respublikasining Kiberxavfsizlik strategiyasini belgilash va kiberjinoyatchilikning oldini olish tizimini takomillashtirish to'g'risida 2026 yil 10 martdagi №PF-38 sonli qarori bilan barcha bank xodimlari tanishtirilsin.

5. Korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishida "O'zmilliybank" AJ xodimlarining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish bo'yicha huquqiy-targ'ibot va profilaktik chora-tadbirlar rejasiga asosan "O'zmilliybank AJ ning 2020 yil 10 avgustdagi №126- sonli va 2022 yil 31 yanvardagi №168-47 xatlarga asosan totalizator, qimor va tavakkalchilikka asoslangan o'yinlarni tashkil etmaslik, taqiqlangan o'yinlarni o'ynamaslik uchun oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida "O'zmilliybank" AJ Komplaens tavakkalchilik blogi Korrupsiyani oldini olish boshqarmasi Korrupsiyani oldini olish va muvofiqlashtirish bo'limi bosh mutaxassisi Sh.Z.Ziyatov, "O'zmilliybank AJ Samarkand viloyat bosh boshqarmasi muammoli kreditlarni undirish va yuridik muvofiqlashtirish boshqarmasi bosh yuristkonsuli A.Yu.Atamurodov, "O'zmilliybank AJ Samarkand viloyat bosh boshqarmasi qarashli Bulung'ur bank xizmatlar ofisini muduri B.E.Tursunovlarni ma'ruzalari ma'lumot uchun qabul qilinsin.

6. Har bir bank xodim o'zining lavozim majburiyatlarini amalga oshirish davomida, xodimlar o'zining va yaqinlarining kelajagini o'ylamasdan, nopok ishlarga qo'l urishib, so'nggi pushaymonlikni hisobga olmaslik oqibatida ularga nisbatan intizomiy jazo choralarining qo'llanilishi yoki jinoiy javobgarlikka tortilishlariga sabab bo'lishini ma'lum qilib, korrupsiyaviy va manfaatlar to'qnashuvi holatlarining har qanday ko'rinishlariga nisbatan murosasiz munosabatda bo'lishi va unga qarshi ayovsiz kurashishi xodimlarining eng ustuvor vazifasi etib belgilanishini, bundan tashqari, xodimlar orasida sog'lom muhitni yaratish, guruxvozlikka yo'l qo'ymaslik, xodimlarning shaxsiy xavfsizligiga, hamda Bank sha'niga imidjiga dog' tushirmaslik, bankning **"Etika kodeksi"** va **"Ichki mehnat tartib qoidlari"**ga rioya etilishini doimiy nazoratga olinishi talablariga muvofiq bank xodimlar har bir fuqaro va mijozlariga hushmuomalada bo'lishlari va ularga xizmat ko'rsatilishida kasb odobiga rioya

etishlari, ularning tashqi ko'rinishlari belgilangan standart talablarga muvofiq bo'lishi lozimligini ta'kidlab o'tdi.

7. "O'zmilliybank" AJ Samarkand viloyati bosh boshqarmasi qarashli Bulung'ur bank xizmatlari ofisini bank xodimlari tomonidan kredit ajratish jarayonida suistemolchilik va tamagirlik qilish holatlari, mablaglarni talon-taroj qilish va boshqa korrupsiyaviy xukukbuzarliklarning oldini olishni;

8. Bank xodimlari o'z lavozim majburiyatlarini ijro etishda manfaatlar tuknashuviga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bulgan shaxsiy manfaatdorlikka bank mijozlari va fuqarolarga xizmat ko'rsatish jarayonida ularga yoxud ularning qarindoshlariga sovg'alarni xadya etish, talab qilish, majburlash xamda nakd pul, nakd pulsiz mablaglar, qimmatli qog'ozlar, qimmatbaxo metallar shaklida va har qanday boshqa mulk shakllari(kuchar/kuchmas)da sovg'alar qabul qilishga yo'l qo'yilmaslikni:

Bank barcha xodimlaridan:

- Poraxo'rlik, ta'magirlik holatlari to'g'risida o'ylovchi bank xodimga nisbatan bank tizimida o'rin yo'qligini ko'rsatib o'tdi.

- Mijozlar va fuqarolar bilan munosabatlarda korrupsiyaviy holatlarning kelib chiqishini oldini olish, hamda xar bir bunday holatlar "O'zmilliybank" AJ Samarqand viloyat bosh boshqarmasiga qarashli, Bulung'ur bank xizmatlari ofisining barcha xodimlarining Korrupsiyani oldini olish boshqarmasi, korrupsiyani oldini olishni muvofiqlashtirish bo'limi bosh mutaxassisi Sh.Z.Ziyatovga axborot berish ta'minlansin.

- "O'zmilliybank" AJ Samarkand viloyati bosh boshqarmasi qarashli Bulung'ur bank xizmatlari ofisining barcha xodimlari tomonidan korrupsiyaga yo'l qo'ygan holatda xodimlar bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilinishi bo'yicha ogohlantirilsin.

- Agarda, yuqoridagi talablarga rioya yetmagan taqdirda, bank xodimlaridan olingan kafolat xatlariga asosan O'zbekiston Respublikasi Mexnat kodeksining 161-moddasi talablariga asosan mehnat shartnomasini bekor qilishga hamda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining tegishli moddalariga asosan jinoiy javobgarlikga tortilishim to'g'risida ogohlantirilgan to'g'risida tushuntirilsin.

Korrupsiya va uning salbiy oqibatlari haqida xuquqni muxofaza qiluvchi idoralar vakillarini jalb etgan holda davra suhbatlari, uchrashuvlar tashkil yetish.

"Korrupsiyaviy holatlarning xar qanday turiga yo'l qo'yimaslik, ta'magirlik va poraxo'rlikka qarshi keskin kurash olib borish, salbiy illatlarga batamom chek qo'yish to'g'risida" davra suhbatlari bilan bank ofisining barcha xodimlari shaxsiy imzosini qo'ygan holda tanishtirilsin.

9. Ushbu yig'ilish bayoni bilan berilgan topshiriqlar o'z vaqtida ijrosi yuzasidan nazorat qilish vazifasi "O'zmilliybank" AJ Samarkand viloyati bosh boshqarmasi qarashli Bulung'ur bank xizmatlari ofisini mudiri B.E.Tursunov o'z zimamda qoldiraman.

Yig'ilish kotibi

D.A.Abdurazakova

“O‘zmilliybank” AJ Samarkand viloyati
bosh boshqarmasi qarashli Bulung‘ur
bank xizmatlari markazida o‘tkazilgan

2026 yil 18. may kuni

“05/18” sonli davra suhbatiga

ILOVA

T A N I S H D I L A R:

T/R	Xodimning F.I.Sh.	Lavozimi	Imzosi
1	Довроков Шохрух К.	Чакана кизмат К. Б. Ш.	
2	Мелидов Гулбек	Боев Муталлаб	
3	Душамбаев Шерондор	Ахмедов Назарбек	
4	Абдурашодов Диндор	Боев Муталлаб	
5	Қараманов Абдул	Тошев Мухаммад	
6	Абдурашодов Шабехур	Мамама Шабехур	
7	Ўринов Бекдор	Мурат	
8	Рахмонов Гулдор	Касим	
9	Тиллошев Мурад	Ўзбекистон мутахави	
10	Абдурашодов Бекдор	Ўзбекистон мутахави	
11	Мухаммадов Абдул	Ўзбекистон мутахави	









UNIVERSAL KASSA 2

UNIVERSAL KASSA 1

